



VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF TARZDA OLIH
YOKIO‘TKAZISH JINOYATINING SUBYEKTIV BELGILARI TAHLILI

Haydarov Jaloliddin Hamza o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

E-mail: haydarovjaloliddin99@gmail.com

Tel: +998908659070

Annotatsiya. *Ushbu tezisdavalyuta qimmatliklarini qonunga xilof tarzda olish yoki o‘tkazish jinoyati subyektiv belgilari tahlil qilinadi. Ushbu jinoyatning subyektini hamda subyektiv tomonini tahlil qilish natijasida jinoyat tarkibini bilish mumkin. Shuningdek, tezis orqali ijtimoiy xavfli qilmishning umumiy subyektini tadqiq etish bilan birga maxsus obyektini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Jinoyatning umumiy va maxsus subyektlari, jinoyatning subyektiv tomoni orqali ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinadi, jinoyat qonunchiligi muhofaza qilishi lozim bo‘lgan obyektlar belgilab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *valyuta qimmatliklari, qimmatbaho toshlar, qimmatbaho metallar, qonunga xilof olish yoki o‘tkazish, qimmatli qog‘ozlar, jinoyat subyektini, jinoyatning subyektiv tomoni.*

Demak, jinoyat subyektiga qo‘yilgan minimal talablar quyidagilar: Belgilangan yoshga yetgan;

Aqli raso;

Jismoniy shaxs.

Ushbu uchta talabni o‘zida jamlagan subyektgina jinoyat subyektini sifatida e‘tirof etilishi mumkin. Shuningdek, jinoyat qonunchiligi turli jinoyatlar uchun maxsus subyektlar doirasini ham belgilaydi. Bundan ko‘zlangan maqsad, bu turdagi jinoyatlarni sodir qilish holatlari faqatgina maxsus subyektlar tomonidan sodir etilishi fakti, umumiy normadan maxsus norma sifatida ajratib olish va jinoyatni kvalifikatsiya qo‘yishni yengillashtirishdan iboratdir. Jumladan, biz tadqiq qilayotgan JK 235-moddada ham umumiy subyekt, ham maxsus subyektlar doirasi keltirilgan bo‘lib, bu bilan ushbu jinoyatni maxsus subyektlardan tashqari umumiy subyekt ham sodir qilishi mumkinligini anglatadi.

Jinoyatning subyektini - jinoyat sodir etgan shaxsning huquqiy xususiyatlarini belgilaydi, jinoyat subyektini tushunchasi faqat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan jinoyat javobgarlikni boshlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar (jismoniy shaxs, yoshi, aqli rasoligi) bilan cheklangan bo‘lib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs xususiyatlarining faqatgina bir qismini o‘zida jamlaydi.

Jinoyatning maxsus subyektini – jinoyat umumiy subyektiga qo‘yilgan Yuqoridagi uch talabdan tashqari jinoyat qonunchiligi orqali qo‘yilgan maxsus talablar bo‘lib, asosan modda dispozitsiyasida ifodalanadi.

Q.R.Abdurasulovanning ta’kidlashicha, jinoyatning maxsus subyektini tushunchasiga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



jinoyatning umumiy subyekti belgilari bilan bir qatorda, qo'shimcha belgilarga ham ega bo'lgan shaxsdir, deb berilgan ta'rifnazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Tadqiq qilayotgan Jinoyat kodeksi 177-moddasida jinoyat subyekti umumiy subyekt hisoblanadi. Ushbu jinoyat uchun umumiy subyekt – aqli raso, belgilangan yoshga yetgan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan jismoniy shaxs.

Jinoyat subyekti yoshini belgilashda shuni inobatga olish kerakki, shaxs muayyan yoshga to'lgan deb tug'ilgan kunida emas, balki keyingi kundan hisoblanadi. Agar shaxsning yoshini hujjatga asosan aniqlashning imkoni bo'lmasa, sud-tibbiy ekspertizasi orqali aniqlanadi va bunda ekspert tomonidan belgilangan yilning oxirgi kuni, ya'ni 31 dekabr shaxsning tug'ilgan kuni sifatida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 15.09.2000 yildagi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi sud amaliyoti to'g'risida"gi №21-sonli Qaroriga asosan shaxs tug'ilgan kundan boshlab emas, balki tug'ilgan kuni o'tganidan so'ng, ya'ni ertasi kunning nol soatidan boshlab jinoyat uchun javobgarlik boshlanadigan yoshga to'lgan, deb hisoblanadi.

Jinoyatning maxsus subyekti deyilganda, aqli raso, qonunda belgilangan muayyan yoshga yetganlik kabi umumiy belgilar bilan birga jinoyat qonunida yoki bevosita unda nazarda tutilganligi tufayli ushbu qonunga binoinan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini belgilovchi qo'shimcha belgilarga ega bo'lgan shaxs tushuniladi. Mazkur belgilarga: fuqarolik; demografik belgilar; mansabi; harbiy xizmatga aloqadorligi; bajarayotgan ishi; kasbiy hamda shaxs majburiyati; subyektning asosiy holatlari va boshqalar kirishi mumkin.

Shuningdek, jinoyatning maxsus subyekti birinchi guruhdagi kichik guruhlardan birini shaxsning kasb-kori, faoliyat turi, bajarayotgan ishining xususiyatini belgilovchi huquqiy holati – tibbiyot xodimi (JK 133- moddasi); saylov komissiyasi a'zolari (JK 146-modda); davlat va xizmat siriga mansub ma'lumotlar ishonib topshirilgan shaxslar (JK 162-modda); direktor, bosh muhandis, texnik nazorat bo'limining boshlig'i; do'kon, ombor, seksiya mudiri, tovarshunos, broker (JK 167-moddasi); mulkni saqlash yoki qo'riqlash topshirilgan shaxslar (JK 172-moddasi); korxonalar, muassasa va tashkilotlarning xodimlari aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni bajarganligi uchun (JK 189-moddasi); kema kapitani (JK 300-moddasi)ga ajratadi. Ta'kidlash joizki, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyalarida jinoyat subyektining umumiy belgilari nazarda tutilmagan. Lekin modda dispozitsiyalarida jinoyat subyektining maxsus belgilari to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi yoki uni sharhlash orqali aniqlanadi, aksariyat holatlarda esa u maxsus normalarda ko'rsatiladi.

Shuningdek, JK 177-moddasi 3-qismida jinoyat subyektini qonun chiqaruvchi maxsus subyekt bilan bog'laydi. Ya'ni xavfli retsivist yoki bir guruh shaxslar jinoyat subyekti sifatida JK 177-moddasi 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilishga asos bo'ladi.

Xavfli retsivist deganda, Jinoyat kodeksi 34-moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan asos keladi. Qonun chiqaruvchi JK 34-moddasi orqali retsivid jinoyatchi, xavfli retsivid jinoyatchi, o'ta xavfli retsivid jinoyatchi tushunchalarini o'zaro farqlaydi. Ushbu tushunchalarning o'zaro farqlari orqali jinoyat subyektiga ham aniqlik kiritib olishimiz



mumkin.

Retsidiv jinoyat - shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi. Ya'ni qasddan sodir qilgan jinoyati uchun sudlangandan so'ng ham shaxs tomonidan yana qasddan jinoyat sodir qilishi tushuniladi. Shunisi e'tiborga molikki, JK 56-moddasi asosida retsidiv jinoyat faqatgina jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etiladi.

Xavfli retsidiv jinoyat – ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xshash jinoyat sodir etgan, ushbu Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi. Ya'ni shaxs avval sodir qilgan jinoyatiga o'xshash jinoyatni yana qayatan sodir qilishi xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi. Aynan o'xshash jinoyatlar deganda:

shaxs ilgari sudlangan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi aynan bir moddasida nazarda tutilgan (agar moddada bir xil jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa);

shaxs ilgari sudlangan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi muayyan moddasi aynan bir qismida nazarda tutilgan (agar moddada turli jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa, masalan, JK 228, 248, 273-moddalari) jinoyatlarni yangidan sodir etish tushunilishi lozim.

O'ta xavfli retsidiv jinoyat - Besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni:

a) ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi.

Ya'ni shaxs xavfli retsidiv jinoyatchi deb topilgan hamda JK 177-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan taqdirdagina JK 177-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Shuningdek, qonun chiqaruvchi JK 177-moddasi 2-qismi "v" bandida ham maxsus subyektini jinoyat subyektini sifatida keltiradi. Bir guruh shaxslar – bir nechta shaxslarning o'zaro til biriktirib, jinoyat sodiretishi tushuniladi. Ushbu holatda qonun chiqaruvchi bir guruh shaxslarning o'zi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga yetmaydi deb hisoblaydi, ya'ni bir guruh shaxslar tomonidan ushbu ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi yuzaisidan oldindan til biriktirgan bo'lishi lozim. Ya'ni oldindan til biriktirganlik fakti mavjud bo'lmasa, jinoyatni bir guruh shaxslar tomonidna sodir etildi deb kvalifikatsiya qilishga asos bo'la olmaydi. Bir guruh shaxs oldindan til biriktirish belgisi orqali jinoyat sodir etgandagina qilmish JK 77-moddasi 2-qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Shuningdek, modda 3-qismi "b" bandiga muvofiq, uyushgan guruh jinoyatning maxsus subyektini hisoblanadi. Uyushgan guruh deganda, ikki yoki undan ko'p guruhlarining o'zaro jinoyat sodir etishda til biriktirishi tushinilishi lozim, ya'ni ikki yoki ko'p guruhlar o'zaro



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishni ko'zlab, o'zaro til biriktirib jinoyat sodir etishi og'irlashtiruvchi belgi sifatida hisoblanadi.

Jinoyatning subyektiv tomoni deb, shaxsning o'z ijtimoiy xavfli qilmishiga bo'lgan tashqi munosabati tushuniladi. Subyektiv tomon jinoyat subyektiv belgilari tizimida ham muhim ahamiyatga ega. Jinoyatning subyektiv tomoni - aybdorning o'zi sodir etgan, jinoyat qonunida jinoyat sifatida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati. Bu jinoyat tarkibining muhim elementi bo'lib, uning bo'lmasligi jinoyat tarkibining ham bo'lmasligiga olib keladi.

Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni – jinoyat qonunida jinoyat deb belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati tushuniladi. Subyektiv tomonning mazmunini sodir etilgan jinoyatning barcha obyektiv holatlarini keraklicha tahlil qilish va ularga baho berish yo'li bilan aniqlash mumkin.

M.X. Rustambayevning fikricha, subyektiv tomon jinoyatning ruhiy mazmunini ta'riflab, u jinoyat tashqi lo'rinishi, ya'ni obyektiv tomoni bilan chambarchas bog'langan. Agar jinoyatning obyektiv tomoni- bu tashqi ko'rinishi bo'lsa, subyektiv tomoni esa ichki mazmuni bo'ladi.

Boshqa bir yuridik olimimiz bo'lmish M.Usmonaliyev esa o'zlarining adabiyotlarida “jinoyatning jinoyatning subyektiv tomoni qilmishning ichki mazmunini ifodalaydi” deb ta'kidlaganlar. Mazkur ta'riflardan shuni anglash mumkinki, jinoyatning subyektiv tomoni bu sodir etilgan jinoyatga mazkur qilmishni sodir qilgan shaxsning ruhiy munosabati, uning ichki kechinmalari, motivi, maqsadi va his- tuyg'ulari deya ta'kidlay olamiz.

Jinoyat qonunchiligi bo'yicha jinoyatni sodir qilgan shaxs mazkur qilmishni ikki ayb shakli asosida sodir etadi, ular qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida bajariladi. Qilmishni sodir etuvchi shaxs o'zi bajarayotgan ijtimoiy xavfli qilmishini jinoyat ekanligini bila turib, uning xavfli oqibatlariga ko'zi yetsa hamda mazkur qilmishni o'zi xohlab bajarsa bunday qilmish qasddan sodir etilgan qilmish sifatida e'tirof etiladi. O'z navbatida qasddan sodir etilgan jinoyat ham to'g'ri va egri deb atalmish ikki shaklda amalga oshiriladi. Jinoyatning to'g'ri qasd orqali sodir etishda shaxs mazkur qilmishni jinoyat ekanligini biladi, uning oqibatlariga ko'zi yetadi va mazkur qilmishni sodir etishni o'zi xohlaydi. Egri qasd bilan qamrab olingan jinoyatda esa shaxs sodir etilayotgan qilmishini jinoyat ekanligini biladi, uning oqibatiga ko'zi yetadi hamdamazkur qilmishni sodir etilishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Jinoyatni ehtiyotsizlik orqali sodir etish deganda shaxs o'zi sodir etayotgan qilmishni o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etgan taqdirda mazkur qilmish ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyat sifatida baholanadi. Qilmishni ehtiyotsizlik ayb shakli asosida sodir qilish ko'pgina hollarda beparvolik hamda o'z-o'ziga asossiz ishonish orqali sodir etiladi. Jinoyat beparvolik asosida sodir qilinganda shaxs qilmishini jinoyat ekanligi va uning oqibatlariga ko'zi yetmasada, lekin ko'zi yetishi lozim bo'lgan holda sodir etilishiga nisbatan aytiladi.

Bundan tashqari, huquqshunoslar Ochilov, Hayrdarov va Shamsuddinovlar o'z adabiyotlarida jinoyatning subyektiv tomoniga “Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni- Jinoyat qonunida jinoyat deb belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati”.

Ko'plab adabiyotlarda jinoyatning subyektiv tomoni haqida fikr ketganda ular asosan quyidagi uch tarkibiy tuzulishdan iborat bo'lishi haqida fikr yuritilgan: bular ayb, motiv va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



maqsad bo'lib hisoblanadi. Aybdor shaxsning jinoyat sodir etishdagi motiv muhim tarkibiy qism sifatida baholanadi va ko'pchilik huquqshunoslar hech bir qasddan sodir etilgan jinoiy qilmish ma'lum motivsiz amalga oshirilmasligini ta'kidlashadi. Motiv jinoyatning tarkibiy qismi uchun muhim bo'lgani bilan uning zaruriy sharti bo'la olmaydi, ammo jinoyatni sodir qilgan shaxs uchu jazo chorasini qo'llashni individuallashtirishda ahamiyati kattadir.

Subyektiv tomonning zaruriy belgisi ayb, fakultativ belgisi esa motiv hamda maqsad hisoblanadi. "Jinoyat motivi va maqsadini to'g'ri aniqlash va jinoyatni ochishga, tergov olib borishga va kvalifikatsiya qilishga, shuningdek kelgusida jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi". Darhaqiqat, jinoyatning subyektiv tomoni mazmunini tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Jinoyat huquqida shaxsning sodir etgan qilmishiga hamda uning oqibatiga nisbatan ichki ruhiy kechinmalari jinoyatning subyektiv tomoni nomi ostida umumlashtirilgan ravishda o'rganiladi. Jinoyat subyektiv tomoni quyidagi elementlarni o'zida jamlaydi:

- I. Ayb shakli;
- II. Jinoyat motivi;
- III. Jinoyat maqsadi.

Ayb – shaxsning o'zi sodir qilgan ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligiga qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ruhiy munosabatidir.

Jinoyat motivi – jinoyat sodir etishda shaxsni boshqargan va jinoyat sodir etishga qaror qildirgan shaxsning muayyan ehtiyoj va manfaatlarini o'z ichiga olgan ichki qo'zg'atuvchi kuchdir.

Jinoyat maqsadi – shaxs jinoyat sodir etish orqali kelajakda erishishga intilgan natijadir.

Ayb, maqsad, motiv haqida gap ketganda ta'kidlash kerakki, jinoyat huquqida bu tushunchalarga nisbatan ikki xil qarash mavjud. Jumladan, P.S. Dagel va D.P. Kotovning ta'kidlashicha, motiv va maqsad ayb bilan bir qatorda jinoyatning subyektiv tomoni zaruriy belgilari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кадников Н. Г. Классификация преступлений по уголовному праву России: моногр. М., 2020
2. Kurbanov M. Mansabdor shaxslar jinoiy javobgarligining o'ziga xos jihatlari // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2017. - №2. – B. 66-67.
3. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyektivi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYI, 2005. – B. 114-115.
4. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b
5. Хайдаров Ш. Ненадлежащее исполнение профессиональных обязанностей: Причины совершения и допустимые условия преступления // Review of law sciences. – 2020. – Т. 2. – №. Спецвыпуск.